Etil, ikkilamchi butilsulfid	135,65^{0}C
Dipropilsulfid	142,8^{0}C
Propil, izobutilsulfid	-
Butil, propilsulfid	-

Kerosin va moy fraksiyalaridagi yuqori molekulyar oltingugurtli birikmalar



6,7 – kondensirlanmagan sistemalar va unga o’xshashlar

Neft haydalganda hosil bo’ladigan kerosin va moy fraksiyalari tarkibida yuqori molekulyar oltingugurtli birikmalar bo’ladi. Ular asosan polisiklik tuzilishga egadir. Neftdan individual yuqori molekulyar oltingugurtli birikmalarni ajratib olish o’ta qiyinvazifadir.

Eng ehtimoli ko’p yuqori molekulyar oltingugurtli birikmalar tiplari quyidagilardan iborat bo’lib, ularning asosiy tuzilish elementlari: benztiofen (1), benztiofan (2), tionaften (3), dibenztiofen (4), naftotiofen (5), kondensirlanmagan sistemalar va unga o’xshashlar (6,7). Neft tarkibida tiofan yoki siklik sulfidlar (polimetilensulfidlar) topilgan bo’lib, to’yingan 5 yoki 6 a’zoli oltingugurt atomli geterosikllardir. Shu bilan birgalikda tiofen va uning gomologlari neftni yuqori haroratlarda qayta ishlash maxsulotlarida topilgan.

Neftning kislorod saqlovchi birikmalari

Kislorod saqlovchi birikmalar neft tarkibida juda kam holatda 10% (mass.) dan ortiq bo’lishi mumkin. Neftning ushbu komponentlari: kislotalar, ketonlar, fenollar va efirlar bo’lib, kamroq hollarda laktonlar, angidridlar, furan birikmalari bo’lishi mumkin. Ushbu moddalar kislorodli birikmalarning turli sinflariga mansub bo’lib, ularning tuzilishi neftning ushbu fraksiyadagi uglevodorod tuzilishiga ham javob beradi. Kislorod saqlovchi birikmalarning asosiy qismi asosan yuqori qaynovchi fraksiyalarda bo’lib, kerosin fraksiyasidan boshlanadi. Dobryanskiy ma’lumotlariga ko’ra kislorod miqdorining 90-95% i smIlalar va asfaltenlarga to’g’ri keladi.

Bestujevning umumlashtirilgan ma’lumotlariga asosan neftning kislorod saqlovchi birikmalarida normal tuzilishga ega bo’lgan C_1-C_{24} kislotalar, izo tuzilishga ega bo’lgan C_4-C_7 alifatik kislotalar (1-,3- metal hosilali va 1-etil hosilali), C_{11}-C_{15} izoprenoid kislotalar, siklopentankarbon kislotalar va ularning mono-, di- va trimetil hosilali gomologlari, siklogeksankarbon kislota va ularning mono-, di- va trimetil hosilali gomologlari hamda turli siklopentilsirka kislotalar va siklopentilpropion kislotalar, C_8– ikki asosli alifatik va aromatik kislotalar, C_3-C_6 alifatik va C_{13}-C_{15} siklik ketonlar, hamma (uch) krizollardan iborat, turli

ksilenollar va β– naftol hamda boshqa murakkabroq tuzilishli birikmalardan iborat fenollar mavjuddir.

Neft kislotalari

Ushbu termin oxirgi vaqtda ko'p qo'llanilib, neft va uning fraksiyalariga kiruvchi hamma kislotalar tushuniladi.

Ushbu termi_icroelten kislotalardan farqlash lozim. Siklopentan- va siklogeksankarbon kislotalari oxirgi terminga oiddir. Neftning o'rta va yuqori fraksiyalarida uchraydigan kislotalar asosan naften kislotalardan iboratdir.

Fenollar

Fenollar – kislorod saqlovchi birikmalar ichida neftdagi miqdori bo'yicha kislotalardan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Neft tarkibida fenolning miqdori ko'p emas. Og'irroq maxsulotlar ichidan fraksiya holida alisiklik fenollar ajratib olingan.

Efirlar

Eirlarning asosiy massasi 370^0C dan yuqorida qaynovchi fraksiyada mavjud bo'lib, og'ir qoldiqlarning 1,3% miqdorini tashkil qiladi. Efirlar to'yingan xarakterga ega. Ketonlar, laktonlar, furan birikmalar neft tarkibida juda oz bo'ladi**.**

Neytral smolalar

Neytral smolasimon moddalar klassifikatsiyasi asosiga ularning turli erituvchilarga nisbatan munosabati olingan. Bunday xususiyat bo'yicha ushbu moddalar quyidagi guruhlarga ajratilgan:

1-guruh: Neytral smolalar – yengil benzin (petroliy efiri), pentan, geksanda eriydi.

2-guruh: Asfaltenlar – petroliy efirida erimaydi, biroq, qaynoq benzolda eriydi.

3-guruh: Karbenlar – faqat piridin va CS_2 da qisman eriydi.

4-guruh: Karboidlar – amalda hech narsada erimaydigan moddalar.

Hamma geteroorganik yuqori molekulyar moddalarning asosiy qismi neytral smolalarga mansubdir. Neytral smolalarga nisbatanasfaltenlar neftda anchagina kamroqdir. Karbenlar va karboidlar ham neftda deyarli yo'q. Ular neft fraksiyalarini termokatalitik qayta ishlashda hosil bo'ladigan qoldiq maxsulotlarni xarakterlaydi. Turli neftlardagi smolasimon – asfaltenli moddalarning umumiy miqdori keng oraliqda, 1-2 dan 40-45% gacha o'zgarib turadi. Dunyo bo'yicha neftni qazib chiqarishda yuqori smolasimon neftlarning ulushi keskin o'sdi.

4-jadval

Smola va asfaltenlarning ayrim neftlardagi miqdori

Neft konlari	Asfaltenlar	Neytral smolalar	Hajmi
Benzoy (Grozniy)	0	2,0	2,0
Suraxan (Boku)	0	4,0	4,0
To'ymazin (Boshqirdiston)	2,8	16,8	19,6
Nebitdog (Turkmaniston)	1,3	17,7	19,0
Uchqizil (O'zbekiston)	3,9	34,8	38,7
Xau - dog–(O'zbekiston)	8,2	33,0	41,2
Qizil tumshuq (O'zbekiston)	5,7	38,7	44,4

Smolasimon asfalten moddalarni o'rganish va miqdoran aniqlashda birinchi navbatda asfaltenlar ajratiladi. Bunda yengil benzinda eritmadan ular cho'kmaga tushadilar. Neytral smolalarni ajratib olish uchun o'rganilayotgan namuna adsorbent (silekogel) bilan aralashtiriladi. Yuqoriroq sirt-aktiv modda sifatida smolalar adsorbent yuzasida boshqa komponentlarga nisbatan mustahkamroq ushlanib qoladi.

Neytral smolalar – yengil benzin, neft moylari hamda benzol, efir va xloroformda yaxshi eriydi. Neft distillatlaridan ajratib olingan smolalar suyuq va yarim suyuq holatda bo'ladi. Ularning nisbiy zichligi 0,99-1,08 gacha bo'ladi. Geteroatomlar (O, S, N) miqdori 3-12% gacha o'zgarib turadi. Smolalar

kuchli bo’yash xususiyatiga egadir, xom neft va distillatlarning to’q ranglari asosan ulardagi neytral smolalar bilan bog’liqdir.

Neytral smolalarning xarakterli xususiyati- ularning ma’lum faktorlar ta’sirida asfaltenlarga zichlanish qobilyatidir. Ushbu faktorlar quyidagilardir: qizdirish, adsorbentlar bilan ishlov berish, sulfat kislota bilan ishlov berish.

Ushbu jarayon havo oqimida qizdirish natijasida oson ketadi. Havosiz yuqori haroratgacha qizdirilgan neytral smolalar esa koks hosil qiladi

Asfaltenlar

Asfaltenlar neftning eng yuqori molekulyar geteroorganik birikmalaridir. Tashqi ko’rinishi bo’yicha kulrang yoki qora rangli kukunsimon moddalar, ularning nisbiy zichligi birdan yuqori, molekulyar og’irligi 2000 atrofida. Asfaltenlar element tarkibi bo’yicha neytral smolalardan vodorodning miqdori kamligi bilan (1-2% ga) va mos holda uglerod va geteroatomlarning ko’proq miqdori bilan farqlanadilar.

Asfaltenlar benzol, CS_2, xloroform, yuqori molekulyar aromatik uglevodorodlar va smolalarda eriydi. Yengil benzin, spirt, dietilefirda erimaydi. Asfaltenlar qizdirilganda yumshaydi, biroq erib ketmaydi. 300^0C dan yuqori haroratda koks va gaz hosil qiladi. Havo oqimida gudron qizdirilganda sulfat kislota ta’sirida asfaltenlar uglerod va kislorodga boyigan yuqoriroq molekulyar moddalarga zichlashib, karbenlarga aylanadi. Asfaltenlar o’z kimyoviy tuzilishlariga ko’ra kuchli kondensirlangan polisiklik aromatik birikmalar bo’lib, halqalari 5 va 6 a’zoli geterosikllar bilan bog’langandir.


Hamma simolasimon moddalar va ayniqsa asfaltenlar (karbenlar va karboidlar) surkov materiallari sifatiga o’ta salbiy ta’sir ko’rsatadilar. Ular moylarning rangini yomonlashtiradi, qurum hosil bo’lishini ko’paytiradi, moylash qobiliyatini pasaytiradi va shu kabilar. Shu sababli, moyli distillatlarni tayyorlashda eng asosiy vazifalardan biri smolasimon asfaltenli moddalarni tarkibdan yo’qotishdir. Shu bilan bigalikda smolasimon moddalar qator qimmatli texnik xossalarga ham ega bo’lib, neft bitumlari tarkibiga

kirgan holda ularga xalq xo’jaligida turlicha qo’llanilishga ega bo’lgan qoldiq maxsulotlarning keng ishlatilishiga sabab bo’ladi.

Neft bitumini gossipol smolasi, organik va mineral ingridiyentlar bilan modifikatsiyalash hamda uning fizik-mexanik xossalarini o`rganish

O`rta Osiyo regionida jumladan O`zbekistonda havo harorati issiq bo`lganligi sababli, asvalt-beton qoplamalarda germetik materiallar tayyorlashda qo`yiladigan asosiy talab bitumning yumshalish temperaturasidir. Ushbu magistrlik dissertatsiyasining oldingi bo`limlarida yo`l qurulishi uchun qo`llaniladigan neft bitumlarining yumshalish temperaturasi 54 $^0$C dan oshmaydi . Shu sababli yuqori haroratning ushlanib turilishi yoki issiq havo sharoitida neft bitumli yo`l qoplamalari tez ishdan chiqadi. Shuning uchun u yoki bu usul bilan neft bitumi yumshalish temperaturasini oshirish orqali asvalt beton qoplamalar va germetik materiallar ekspluatatsion xossalarini yaxshilash talab etiladi.

Bu esa o`z navbatida neft bitumining yumshalish temperaturasining oshirish maqsadida uni turli ingridiyentlar bilan modifikatsiyalash va boshqa to`ldiruvchi polimer komponentlar bilan bitumli polimer kompozitsiyalar ishlab chiqish ,polimer kompozitsiya tarkibiga kiruvchi komponentlar funksional guruhlari bilan bitum tarkibidagi funksional guruhlarining o`zaro ta`sirlashuv mexanizmlarini o`rganish alohida kasb etadi. Shuni inobatga olib , turli markadagi neft bitumlarining yumshalish temperaturasiga turli ingridiyentlarning jumladan, gidroliz lignini va ikkilamchi polietilen ta`siri o`rganildi. Olingan natijalar va o`rganish qonuniyatlari 2- rasmda keltirilgan .



Lignin miqdori, % og’ir


2-rasm. Gidrolizlangan lignin miqdorining bitum yumshash haroratiga bog’liqligi.

1- BHD 60/90 markali bitum; 2- BHD 40/60 markali bitum; 3- BHD 70/30 markali bitum; 4- BHD 90/10 markali bitum;

Ushbu rasmdan ko`rinib turibdiki gidroliz lignini miqdori ortib borishi bilan neft bitumining yumshalish temperaturasi ham ortib boradi. Masalan :gidroliz lignini saqlamagan neft bitumining yumshalish temperaturasi 46 $^0$C dan 54 $^0$C gacha bo`lsa ,neft bitumining 20-25% gidroliz lignini saqlagan kompozitsiyaning yumshalish temperaturasi 65-70^{0}C gacha ortadi. Ushbu holatni izohlash lignin tarkibidagi gidroksil guruhlar bilan bitum tarkibidagi funksional guruhlarning o`zaro ta`sirlashuvi hisobidan amalga oshadi .

Bitumli gossipol polimer kompozitsiyaning ikkilamchi polietilen bilan modifikatsiyalash natijasida kompozitsiyaning issiqlikka bardoshliligi ortadi . Bu esa o`z navbatida neft bitumining avtomobil yo`llarini qoplashda , darz ketishida germetik ingridiyent sifatida qo`llash afzalligini ko`rsatadi. Shu bilan bir qatorda ikkilamchi polietilen qo`llanilganda kompozitsiyaning yumshalish temperaturasi va oquvchanligi 60-70 ^{0}C dan oshmaydi. Shu sababli bitumli – gossipol

kompozitsiyani ikkilamchi polietilen bilan modifikatsiyalash bir qator kamchiliklarga olib keladi. Olingan natijalar 3- rasmda keltirilgan




Ikkilamchi polietilen miqdori, % og'ir

3-rasm. Ikkilamchi polietilen miqdorining bitum yumshash haroratiga bog'liqligi


1- BHD 60/90 markali bitum; 2- BHD 40/60 markali bitum; 3- BHD 70/30 markali bitum; 4- BHD 90/10 markali bitum;

Bitumli-gossipol kompozitsiyaning polivinilxloridning chiqindisi hisoblangan kukunlari bilan modifikatsiyalash jarayoni labaratoriya sharoitida olib borildi, 180^0C da 20-22 min davomida bir xil massa hosil bo`lgunga qadar aralashtirib turildi. Olingan massa ma`lum bir idishlarda sovutildi va olingan tajriba natijalari 4-5 rasmda keltirilgan.



4- rasm. Ikkilamchi polivinilxlorid miqdorining bitumli- gossipol kompozistiya ko'rsatkichlarga ta'siri

1- Yumshash harorati, ^{0}C ; 2- ignaning botish chuqurligi, mm^{-1}




5- rasm. Ikkilamchi polivinilxlorid miqdorining bitumli- gossipol kompozistiya ko'rsatkichlarga ta'siri

1- ignaning botish chuqurligi, mm^{-1}; 2- Beton bilan bog'lanish mustahkamligi, MPa.

Ushbu rasmlardan ko`rinib turibdiki ikkilamchi polivinilxlorid konsentratsiyasining ortib borishi bilan bitumli-gossipol kompozitsiyaning yumshalish temperaturasi 75 $^0$C gacha ko`tariladi, shu bilan bir qatorda ignaning botish chuqurligi 45mm^{-1} gacha kamayadi. 25 ^{0}C da tortiluvchanligi 15 sm dan 60


smgacha ortadi,polimer kompozitsiyaning adgezion mustahkamligi 0.1dan 0.42 Mpa gacha ortadi.Ushbu xossalarning o`zgarishiga olib keluvchi asosiy omillardan biri polivinilxloridning tarmoqlanmagan strukturaga ega bo`lganligi va u ma`lum darajada bo`kishi hisobidan bitum va gossipol smolasining tarkibidagi quyi molekulyar birikmalar bilan o`zaro aralashishi hisobiga sodir bo`ladi.Polivinilxloridning bo`kishi bilan bitumli gossipol smolasi kompozitsiyaning qovushqoqoligi ortadi. Shu sababli u sovutilganda qattiq holatga o`tadi ,ya`ni polivinilxloridning tarmoqlanmagan strukturaga ega ekanligidan dalolat beradi. Yuqoridagilarni inobatga olib bitumli-gossipol kompozitsiya tarkibiga polivinilxloridning kiritilishi uning kompleks xarakteristikasini yaxshilashga olib keladi.

Keyingi tajribalarda neft bitumining gossipol smolasi bilan modifikatsiyalash o`rganildi . Olingan natijalar 6-7 rasmlarda keltirilgan .



6- rasm. Gossipol smolasi bilan modifikastiyalangan bitumli kompozistiyaning ko’rsatkichlari

1- Yumshash temperaturasi, ^{0}C; 2- beton bilan bog’lanish mustahkamligi, MPa




7- rasm. Gossipol smolasi bilan modifikastiyalangan bitumli kompozistiyaning ko’rsatkichlari

1- ignaning botish chuqurligi,mm^1; 2- tortiluvchanlik, sm.


Ushbu rasmlardan ko`rinib turibdiki,neft bitumi tarkibida gossipol smolasining miqdori ortib borishi bilan bitumning xarakteristik ko`rsatkichlari yaxshilanadi . Jumladan bitumning yumshalish temperaturasi 15-20^{0}C ga ortadi, tortiluvchanlik 7.5dan 4.0 sm gacha pasayadi ,ignaning botish chuqurligi 90 mm^{-1} dan 50mm^{-1} gacha pasayadi ,adgezion mustahkamligi 0.02 dan 0.3 Mpa gacha ortadi. Ushbu ko`rsatkichlardan ko`rinib turibdiki, neft bitumli kompozitsiya tarkibida bitumning miqdorini modifikatsiyalangan gossipol smolasi bilan 60 % va undan yuqori almashtirish mumkinligini ko`rsatadi.

Bitumli polimer kompozitsiyani rezina kukuni bilan modifikatsiyalash hisobiga uning ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilashga olib kelishi tajribalarda aniqlandi. Bitumli kompozitsiyani rezina kukuni bilan modifikatsiyalash boshqa ingridiyentlarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega . Jumladan: polimer kompozitsiyani tayyorlash texnologiyasining soddaligi, fizik-mexanik ko`rsatkichlarning boshqa modifikatsiyalovchi komponentlarga nisbatan yuqori bo`lishi ,asvalt-bitumining darz ketishini keskin kamaytirishi va hokazolar shular jumlasidandir. Olingan natijalar 8-9 rasmlarda keltirilgan .



8- rasm. Rezina kukuni bilan modifikastiyalangan bitumli-gossipollli kompozistiyaning rezina kukuni konstentrastiyasiga bog'liqligi.

1- Yumshash harorati, ^{0}C; 2- Beton bilan bog'lanish mustahkamligi MPa



9- rasm. Rezina kukuni bilan modifikastiyalangan bitumli-gossipollli kompozistiyaning rezina kukuni konstentrastiyasiga bog'liqligi.

1- Ignaning botish chuqurligi, mm^{-1}; 2- Tortiluvchanlik, sm.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib ,neft bitumini turli komponentlar bilan modifikatsiyalash natijasida yuqori samaraga ega bo`lgan bitumli polimer kompozitsiyaning bir qator retsepturasi ishlab chiqildi. Yaratilgan yuqori samarali bitumli polimer kompozitsiyaning texnologik va fizik-mexanik xossalari yaxshilanishi hisobiga asvalt-beton qoplamalarida qo`llash va uning darz ketishini oldini olishda germetik deformatsiyalovchi kompozitsiya sifatida qo`llash imkonini berdi.Turli xil temperaturada va klimatik sharoitlarda qo`llash mumkin bo`lgan bitumli kompozitsiyaning ishlab chiqilgan resepturasi 5- jadvalda, ishlab chiqilgan bitumli kompozitsiyaning fizik-mexanik ko`rsatkichlari esa 6 jadvalda keltirilgan . Ushbu 5 va 6- jadvallaridan ko`rinib turibdiki, turli komponentlar va ularning o`zaro nisbatlarini o`zgartirish orqali yuqori samarali oldindan aniqlangan xosalarni namoyon qiluvchi bitumli polimer kompozitsiya yaratish mumkinligini ko`rsatadi. Jumladan polimer kompozitsiya tarkibida gidroliz lignini, gossipol smolasi, so`ndirilgan ohakning ortib borishi bilan bitumli polimer kompozitsiyaning $-30^0$C dan $+130^0$C gacha temperatura oralig`ida ishlatish mumkinligini ko`rsatadi.

5- jadval

Ishlab chiqilgan bitumli kompozistiya restepturasi

Ingridientlar nomi	Ingridientlar miqdori, og'ir.qism					
	BK-80	BK-90	BK-100	BK-110	BK-120	BK-130
Bitum BH-90/10 (BHI-V)	35	35	35	30	30	30
Gossipol smolasi	40	40	30	30	30	30
Rezina kukuni	13	13	15	10	10	5
Gidroliz lignini	3	2	5	8	10	10
Ikkilamchi polietilen	5	5	7	7	-	-
Ikkilamchi polivinilxlorid	2	2	4	6	6	10
So'ndirilgan ohak	1,0	1.5	2	2	2.5	3.0
Tola chiqindisi	-	-	-	4	8	8
	100	100	100	100	100	100

Shu bilan bir qatorda olib borilgan kompleks tadqiqotlar natijasida fizik-mexanik xossalari yaxshilangan bitumli polimer kompozitsiyaning ishlab chiqilgan retseptura asosida texnologik rejimlarni saqlagan holda komponentlarni bir-biriga aralashtirish vaqti 3.5-4 soat davomida 185 ^{0}C ni tashkil qiladi.

Olingan bitumli polimer kompozitsiyaning turli markalardagi fizik-mexanik ko`rsatkichlari shuni ko`rsatayapdiki, neft bitumi sarf xarajati polimer kompozitsiya qo`llanganda uning miqdori 5 % ga kamayishi aniqlandi. Olib borilgan izlanish natijalariga asosan ishlab chiqilgan bitumli polimer kompozitsiya germetik material hisoblanib asvalt-beton qoplamalardagi darz ketishni germetiklash vazifasini bajaradi va qo`yilgan talablarga to`liq javob beradi.

6- jadval

Bitumli kompozistiyaning fizik-mexanik xossalari

ko’rsatkichlar	Aniqlash usuli	Turli markadagi bitumli kompozistiya ko’rsatkichlar qiymati					
		BK-80	BK-90	BK-100	BK-110	BK-120	BK-130
Tashqi ko’rinishi	vizual	Bir xildagi og’irlik					
Yumshash harorati, ^{0}S	GOST26589	80	90	100	110	120	130
Mo’rtlanish harorati, ^{0}S	GOST11507	-20	-20	-24	-24	-26	-28
Cho’ziluvchanlik, sm	GOST11056	40,	3,8	3,5	3,3	3,2	3,0
Beton bilan mustahkamlanish ko’satkichi, MPa	TU-RUz14.042004	0,3	0,35	0,40	0,50	0,7	0,9
Ignaning botish chuqurligi, mm^{-1}	GOST11501	32,0	29,0	27,0	23,0	18,0	15,0
Namlanish yutishi, 24 soat ichida,% da	0.2 dan ko’p bo’lmagan	0,2	0,17	0,15	0,16	0,14	0,14

Ishlab chiqilgan bitumli polimer kompozitsiyaning turli maqsadlarda, ya`ni asvalt-beton qoplamalarda qo`llash yuqori samarani beradi. Bitumli polimer kompozitsiyaning fizik-mexanik ko`rsatkichlari 7 va 8 jadvallarda keltirilgan.

7- jadval


Ishlab chiqilgan bitumli kompozistiya bilan avtomobil yo'llarini qoplash va uni qo'llash bo'yicha turli markadagi bitumlar restepturasi

Komponentlar tarkibi	Komponentlar miqdori, og'irlik qism,																	
	BK-80/1	BK-80/2	BK-80/3	BK-90/1	BK-90/2	BK-90/3	BK-100/1	BK-100/2	BK-100/3	BK-110/1	BK-110/2	BK-110/3	BK-120/1	BK-120/2	BK-120/3	BK-130/1	BK-130/2	BK-130/3
Bitum BN 90/1(BNI-V)	35	35	35	35	35	35	30	30	30	30	30	30	30	30	30	30	30	30
Gossipol smolasi	40	40	40	40	40	40	40	40	40	40	40	40	30	35	35	35	35	35
Rezina kukuni	13	13	10	12	5	5	15	4	4	18	4	4	19	7	7	18	4	6
Ikkilamchi polietilen	-	-	11	-	12	-	-	16	-	-	14	-	-	12	-	-	14	-
Ikkilamchi polivinilxlorid	1,0 -	3 -	3 -	- 6,5	6,5 -	6,5 -	8 -	- 8	8 -	10 -	- 10	10 -	15,5 -	- 13,5	15,5 -	14 -	- 14	14 -
Gidroliz lignini	10	-	-	5	-	-	5	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
So'ndirilgan ohak	1,0	1,0	1,0	1,5	1,5	1,5	2	2	2	2	2	2	2,5	2,5	2,5	3	3	3
	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100

8- jadval

Ishlab chiqilgan bitumli kompozistiyaning fizik-mexanik xossalari

Ko’rsatkichlar	BK-80/1	BK-80/2	BK-80/3	BK-90/1	BK-90/2	BK-90/3	BK-100/1	BK-100/2	BK-100/3	BK-110/1	BK-110/2	BK-110/3	BK-120/1	BK-120/2	BK-120/3	BK-130/1	BK-130/2	BK-130/3
Yumshash harorati, ^{0}S	82	79	81	91	90	92	98	101	100	114	116	112	118	120	123	126	128	131
Mo’rtlashish harorati, ^{0}S	-20	-22	-20	-21	-22	-23	-22	-24	-24	-21	-23	-22	-24	-26	-25	-26	-28	-29
Cho’ziluvchanlik, sm	4,2	4,1	4,0	3,8	3,6	3,9	3,4	3,6	3,5	3,1	3,3	3,2	3,0	3,2	33	2,8	2,7	2,9
Beton bilan bog’lanish mustahkamligi Mpa	0,29	0,28	0,30	0,32	0,34	0,35	0,39	0,42	0,40	0,51	0,48	0,50	0,5	0,71	0,73	0,82	0,84	0,91
Ignining botish chuqurligi, mm^{-1}	30,0	28,0	32,0	26,0	28,0	29,0	26,0	27,0	28,30	22,0	24,0	23,0	18,0	16,0	17,0	16,0	14,0	15,0
Namlikni yutish, %	0,18	0,20	0,21	0,16	0,17	0,15	0,14	0,16	0,13	0,13	0,15	0,16	0,13	0,12	0,14	0,12	0,13	0,12



10- Rasm. Yuqori samarali bitumli kompozistiya olish texnologik sxemasi

Ushbu jadvallardan ko`rinib turibdiki bitumli polimer kompozitsiyaga qo`yiladigan asosiy talablar to`liq bajariladi va me`yoriy hujjatlar talabiga mos keladi.

Shunday qilib , olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko`rsatdiki neft bitumi va organik va noorganik ingridiyentlar asosida ishlab chiqilgan bitumli polimer kompozitsiya yuqori samarali va qovushqoqolikka ega bo`lib bitumga qo`yiladigan talablarga to`liq javob beradi va uning fizik-mexanik xossalarining yaxshilanishiga olib keladi.

Ayniqsa bitum sarfining 5 % gacha qisqarishiga ,yaroqlilik muddati 2-2.5 barobar ortishiga olib keladi va shuni hisobidan yuqori samaradorlikka erishiladi.

Xulosa

1. Turli komponentlar ishtirokida neft bitumini modifikatsiyalash jarayonining nazariy asoslari tahlil qilindi va neft bitumini modifikatsiyalash bo`yicha komponentlar tanlashning ilmiy asosi ishlab chiqildi.
2. Yo`l qoplamalari uchun bitum sarf miqdorini kamaytirish va uning ekspluatatsion xossalarini yaxshsilash maqsadida bitum o`rnini bosuvchi polimer kompozitsiya olish texnologiyasini yaratildi ,ularning fizik-kimyoviy xossalarini o`rganildi va neft bitumini olishda ularni qisman import o`rnini bosuvchi komponent sifatida qo`llanilishini modifikatsiyalash orqali amalga oshirildi.
3. Kompozistiyaning fizik-mexanik va ekspluatastion xosslarini yaxshilash maqsadida gossipol smolasi asosida bitumni modifikatsiyalash, gossipol smolasini organik va mineral ingridiyentlar bilan modifikatsiyalsh hamda uning xossalarini o`rganish kabi tajribalar amalga oshirildi.
4. Bitumlarning solishtirma xarakteristikasi, termik qayta ishlashdagi gassipol smolasining frakstion tarkibi, ekstruzion usulda maydalangan rezina kukunning tarkibi, ekstruzion usulda maydalangan turli frakstiyadagi rezina kukunning solishtirma sirtiga ta’siri kabi parametrlar aniqlandi. So’ndirilgan ohak, gossipol smolasi va rezina kukuni bilan bilan modiqikastiyalangan bitumli kompozistiyaning modifikastiyalovchi komponentlar konstentrastiyasiga bog’liqligi o’rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.M.G.Rudin. A.E.Drabkin «Kratkiy spravochnik neftepererabotka» L «Ximiya» 1980g, 35-45-betlar

2. «Ximiya nefti» Pod reakstiy prof. Z.I.Syunyaeva. L.Ximiya 1984g.

3. G.I.Trofimova «Kurs fiziki» M. «Vыsshaya shkola» 1985g.

4. B.V.Belyanin, V.N.Erix. Texnicheskiy analiz nefteproduktov i gaza., L.: Ximiya, 1975 g, 88-91 s.

5. Gun R.B.Neftyanыebitumi.-M.:Ximiya .1978-432 bet

6 .Axmetova R.S. va boshk. Xarakteristika bitumov .poluchennыx okisleniem v reaktorax razlichnoy konstrukstii. Trudы SoyuzDorNII-M.1971

7.RozentalD.A. Bitumi. Poluchenie i sposobы modifikastii.-L. :LTI. Lensoveta1979

8.Kolbonovskaya A.S. Dorojnыe bitumi –M.Transport,1973

9.Patent №4211576,SShA.Bitumnыe kompozistii.

10.Grudnikov I.B. Proizvodstvo neftyanыx bitumov –M. Ximiya 1983.

11.Bitumnыe materialы. Asfalti ,smolы,peki-M.Ximiya 1974.

12.Rebinder P.A. O fiziko ximicheskoy mexanike bitumnыx materialov. Trudы SoyuzDorNII-M.1972

13.GOST 6617-76. Stroitelnыe neftyannыe bitumы.

14. GOST 9548-74 .Neftyannыe krovelnыe bitumы.

15. GOST 22245-90. Neftyannыe dorojnыe bitumы.

16.Kisina N.A. Novыe gidroizolyastionnыe i krovelnыe materialы i ix dolgovechnost.-Lyu Energiya ,1980.

17.Popchenko S.N. Xolodnaya asvaltovaya gidroizolyastiya. –L ,Stroyizdat,1977.

18.Xodjaev S.A. Struktura, texnologiya i svoystva betona dlya krovelnыx pokrытiy .-Tashkent.2001

19.Rozental D.A. Modifikastiya svoystv bitumov polimernыmi dobavkami .-M.1988

20.Sonina N.M. Razrabotka sostava i issledovanie svoystv bitumov ,modifikastirovannыx visokomolekulyarnыmi soedineniyami s stelyu polucheniya morozostoykix krovelnыx pokrыtiy. –M.1970

21. RozentalD.A. Osbennosti sovmesheniya bitumov polimerami .-1976

22.Shuljenko Yu.P.Bezrulonnыe krovelnыe materialы.-M. 1976

23. Shuljenko Yu.P Mastichnыe krovelnыe i gidroizolyastionnыe materialы na osnove xlorsulfopolietilena. –M.1988

24.Roter F. Trudы mejdunarodnogo simpoziuma po primeneniyu kauchuka v bitumnыx pokrыtiyax.-Ufa,1971.

25.Korshak V.V. Termostoykie polimerы . – M.1969.

26.Lebedova I.K. Razrabotka i issledovanie visokonapolnennix bitumno-mineralnыx pokrovnыx kompozistiy dlya ruberoida s stelyu povыsheniya ego eksplutastionnыx svoystv. –M.1980

27.Mishenkov V.V. Vnedrenie krovelnыx bitumnыx emulsiy kationnogo tipa .-1977

28. Popchenko S.N. O raschete dolgovechnosti pokrыtiy iz polimer –bitumnыx materialov. -1981

29. Rudenskiy A.V. Dorojnыe asfaltobetonnыe pokrыtiya.-M.1992

30.Povalyaev M.I. Krovli promыshlennыx zdaniy.Onovы povыsheniyanadejnosti. –M.1985

31.Avrutin Yu.E. Jelezobetonnыe krыshi jilыx i obщestvennыx zdaniy.-M.1971

32.Surmeli D.D. Vliyanie glubinы otbora maslyanыx frakstiy pri peregonki nefti na fiziko-mexanicheskie svoystva okislennыx bitumov i ix pogodoustoychivost.-M.1957

33.Voyustkiy S.S. Rastvorы vыsokomolekulyarnыx soedineniy. – M. Ximiya,1960

34.Makarov L.I. Ispolzovanie amortizastionnыx shin i otxodov proizvodstva rezinovыx izdeley.-L.Ximiya ,1986

35.Kozlovskaya A.A. Polimernыe i polimerbitumnыe materialы dlya zaщitы truboprovodov. 1968

36.Dogatkin B.A. Ximiya elastomerov.-M. Ximiya ,1972.

MUNDARIJA

Kirish 3

I-BOB. BITUMLI KOMPOZISIYALAR VA ULARNI FIZIK-MEXANIK XOSSALARI HAMDA AVTOMOBIL YO'LLARINI QOPLASHDA QO'LLANILISHI 8

1.1 Neft bitumi va uning xarakteristikasi 8

1.2.Neftning erituvchanlik kobiliyati va uning uglevorodlarnining eruvchanligi 23

1.3.Alkanlar emirilishining ximizmi va mexanizmi 33

1.4. Neftni haydash jarayoni 35

II-BOB. NEFT XOM-ASHYOSINI SAQLASHDA HOSIL BO'LADIGAN QATTIQ NEFT SHLAMLARINI QAYTA ISHLASH USULLARI..... 38

Neftning geteroatomli birikmalari 38

Xulosa 59

Foydalanilgan adabiyotlar 60

Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti 5140500-kimyo ta’lim yo’nalishi bitiruvchisi Umurov Feruzning « Neft xom-ashyosini saqlashda hosil bo‘ladigan qattiq neft shlamlarini qayta ishlash » mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A. Karimov o’zining “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari” nomli asarida ko’rsatib o’tganlaridek, korxonalarni modernizastiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish hamda import o’rnini bosadigan, eksportga yo’naltirilgan va mahalliylashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish, mamlakatimizning ham tashqi, ham ichki bozorda barqaror mavqega ega bo’lishini ta’minlaydi.

Paxta moyi ishlab chiqarishda ikkilamchi mahsulotlar sifatida ko’p tonnalik soapstok va gossipol smolasi hosil bo’ladi. Respublikamizda yiliga 20 ming tonnadan ko’proq gossipol smolasi yig’ilib qolmoqda yoki tashlab yuborilmoqda.

Yog’och mahsulotlarini qayta ishlashda ham bir qator chiqindilar hosil bo’ladi. Yog’och sanoati chiqindisi ligninning ishlatilish ko’lami etarli darajada mukammal emas. Faqatgina Hamdo’stlik mamlakatlaridagi gidroliz korxonalarida yiliga 2 mln. tonnadan ortiq lignin chiqindisi yig’iladi. Hosil bo’lgan ligninning atigi 2% dan ko’prog’i qayta ishlanib, foydalanishga jalb etiladi, xolos. Qolgan qismi yoqib yuboriladi yoki chiqindiga chiqarilib, “doimiy” saqlanishga qo’yiladi. Bu jarayon o’z navbatida qo’shimcha mablag’lar hisobiga amalga oshirilmoqda va ekologik muhitga salbiy ta’sir qilmoqda.

Mavzuga oid 36 nomdagi adabiyotni o’rganib, tahlil etib 61 betdan iborat bitiruv malakaviy ishini yozdi. Bitiruv malkaviy ishda neft bitumi uning

xaraktersitikasi, neftning eruvchanlik qobiliyati va uning uglevodorodlarning eruvchanligi, gassipol smolasi asosida bitumning modifikatsiyasi keng yoritilgan.

F. Umurov o`zining intizomi, yuksak ma`naviyati, bilimga chanqoqligi, jamoatchiligi bilan o`rtoqlariga o`rnak bo`lib kelmoqda.

Ish O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining bitiruv malakaviy ishga qo`ygaí talablariga to'la javob berishini inobatga olib, uni himoya qilishga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar **prof. M.R.Amonov**

Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti 5140500- kimyo ta’lim yo’nalishi bitiruvchisi Umurov Feruzning «Neft xom-ashyosini saqlashda hosil bo‘ladigan qattiq neft shlamlarini qayta ishlash » mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Fan va texnikaning taraqqiy etishini ta’minlash tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog’liq. Tabiiy resurslarni qayta ishlash jarayonida ishlab chiqarish korxonalarida asosiy mahsulotlar bilan bir qatorda ko’p miqdorda chiqindilar ham hosil bo’lmoqda. Mazkur chiqindilarning asosiy qismi ishlab chiqarishning kimyo, oziq-ovkat, metallurgiya va qog’oz sanoatlari hissasiga to’g’ri kelmoqda.

Yuqorida aytib o’tilgan chiqindilarni qayta ishlash, ular asosida hozirgi kunda taqchil bo’lgan, import o’rnini bosa oladigan yangi turdagi mahsulotlar olish va shu tariqa mazkur chiqindilardan xom ashyo sifatida yanada samarali foydalanish, shuningdek ular bilan bog’liq ekologik, iqtisodiy muammolarni hal qilish bugungi kunda o’z echimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof muhitni toza saqlash maqsadida chiqindilarni qayta ishlash bo’yicha O’zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to’g’risida”gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun talablaridan kelib chiqilsa, havola qilinayotgan ilmiy ishning dolzarbligi yanada oshadi.

Metall konstrukstiyalarni korroziyadan saqlash muammosi butun jahon bo’ylab doimiy ravishdagi dolzarb muammolardan biri bo’lib qolmoqda. Ko’p yillik ma’lumotlarga ko’ra, rivojlangan mamlakatlarda 3,0-3,5 % yalpi daromadning yo’qotilishi faqatgina korroziya hisobiga to’g’ri kelib, bu yiliga 10-15% metall yo’qotilishiga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, hozirgi vaqtda metallarni korroziyadan himoyalovchi va texnik yuvish vositalariga bo’lgan O’zbekiston Respublikasi talabi ushbu turdagi mahsulotlarni chet mamlakatlardan valyuta evaziga import qilish hisobidan qondirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, import o’rnini bosadigan mahsulotlarni chiqindilardan olish texnologiyasining yaratilishi va sanoat miqyosida ishlab chiqarishga joriy etilishi Respublika iqtisodiga

munosib ta’sir qiladi, jahondagi moliyaviy inqirozning mamlakatimizni chetlab o’tishiga va milliy valyuta zahiralarining tejalishiga hissasini qo’shadi.

Xozirgi vaktda juda kup darajada rivojlangan kimeviy ishlab chikarish korxonalari, jumladan neftni kayta ishlash zavodlarda ishlab chikarishning barcha texnologik tajribalarini umumlashtiruvchi va uni rastional texnologik jaraenlarga bir ishlab chikarish turidan boshkasiga kullay oladigan etakchi keng va chukur bilim saviyasiga ega bulgan mutaxassislar tayerlashga da’vat etmokda. Zamonaviy davr talabi asosida boskichma – boskich rivojlangan kimeviy ishlab chikarishning kombin astiyalashgan usuli «kime - texnologi» muxandisini tayerlashda «kimeviy texnologiyaning nazariy asoslari», fani bilan bir katorda neft va gaz fizikasi va kimesi fanini xam bilishiga zaruriyat tugilmokda

Bitiruv malakaviy ish 61 betdan iborat bo`lib, u kirish qismi, alkanlar yemirilishining ximizmi va mexanizmi, gidroliz lignini, ekstrakstion fosfat kislotasi, furfuril spirti va geksametilentetramin asosida zangni modifikastiyalovchi kompozitsiyalar olish texnologiyasini yaratish, gossipol smolasi asosida bitumni modifikatsiyalash, xulosalar va 36 nomda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan tashkil topgan.

Umuman bitiruv malakaviy ishda katta hajmda bajarilgan. Shu bilan birga ish yuzasidan e`tirozlarim ham bor:

1. Qattiq neft shlamlarini qayta ishlashda modifikatorlarning tanlanishi keltirilmagan
2. Ishda orfografik va imloviy xatolar mavjud

Yuqorida ko`rsatilgan kamchilik bitiruv malakaviy ishining umumiy bahosiga salbiy ta`sir etmaydi, aksincha ish dolzarb mavzuga bag'ishlangan bo`lib, ham amaliy, ham nazariy muammolarni echishga qaratilgan.

Umurov Feruz tomonidan bajarilgan bitiruv malakaviy ishi O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan bitiruv malakaviy ishiga qo`yilgan talablarga to`la javob berishini inobatga olib, uni "yaxshi" bahoda baholayman va himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi

BuxDU huzuridagi 4-son

Akademik litsey dotsenti A.R. Hafizov